

“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABLARINI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI

Eshmuminova Oybachin Botirovna

A. Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot Instituti

E-mail: eshmuminovaoybachin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabdan tashqari ta’lim va uning xorij tajribasi, hamda ta’lim klasteri va barkamol avlod bolalar maktablari bilan ishlab chiqarish korxonalarini integratsiya qilish masalalari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabdan tashqari ta’lim, “norasmiy ta’lim”, klaster, ta’lim klasteri, “Barkamol avlod” bolalar maktablari.

Metodlar: abstraksiya, qiyosiy tahlil, ilmiy xulosa.

ВОПРОСЫ ИНТЕГРАЦИИ ДЕТСКИХ ШКОЛ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ С ПРОИЗВОДСТВЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о внешкольном образовании и его зарубежном опыте, а также о вопросах интеграции производственных предприятий с образовательным кластером и детскими школами зрелого поколения.

Ключевые слова: внешкольное образование, «неформальное образование», кластер, образовательный кластер, детские школы «Баркамол авлод».

Методы: абстрагирование, сравнительный анализ, научный вывод.

ISSUES OF INTEGRATION OF “BARKAMOL AVLOD” CHILDREN’S SCHOOLS WITH PRODUCTION ENTERPRISES

ABSTRACT

This article talks about out-of-school education and its experience abroad, as well as issues of integration of production enterprises with education cluster and children’s schools of the mature generation.

Keywords: out-of-school education, "informal education", cluster, educational cluster, "Barkamol Avlod" children’s schools.

Methods: abstraction, comparative analysis, scientific conclusion.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish niyatida. Bunday sharoitda O‘zbekistonliklarning yosh avlodi zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklanadi, ular milliy raqobatbardoshlik darajasini oshirishi, 21-asrda O‘zbekistonning gullab-yashnashi va tan olinishini ta‘minlashi kerak.

Intellektual, mehnatkash, innovatsion fikrlash yangi O‘zbekistonning asosiy qadriyatlariga aylanib bormoqda va davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da belgilangan ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohang bo‘lishi kerak.

Inson kapitalini rivojlantirishning samarali usullaridan biri “texnologik yutuq”ga tayyor yangi avlodni tayyorlash va uni ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatni amalga oshirishga jalb qilishdir.

Zamonaviy sharoitda maktab ta‘limi doirasida har doim ham amalga oshirib bo‘lmaydigan sohalarda bolalarning kognitiv qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq ta‘lim faoliyati tobora keng tarqalmoqda.

Bolalar uchun maktabdan tashqari ta‘limning mahalliy tizimi o‘quvchilarning ilmiy-texnikaviy, badiiy-estetik, ekologik va biologik, turistik va o‘lkashunoslik, harbiy-vatanparvarlik, ijtimoiy-pedagogik sohalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun noyob ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarga ega ta‘lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-maydagi 331-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Barkamol avlod” bolalar maktablarining Nizomi hamda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2019-yil 28-martdagi “Xalq ta‘limi tizimida o‘quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, sa‘nat, sport, axborot-texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish, o‘quvchi qizlarni ijtimoiy-faol hayotga jalb etish bo‘yicha 5ta muhim tashabbusni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-sonli buyrug‘i, asosida o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Har bir yosh avlodning ma‘naviyati, sog‘lom va barkamolligi, bilim va salohiyati alohida e‘tiborga loyiq. Oilada ota-ona, maktabda ustoz-murabbiylar bolalar va o‘smirlarga ta‘lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanadilar. Shu o‘rinda bir savol tug‘uladi. Maktabdan keyin bolalar nima bilan shug‘ullanadilar? Ota-onalar farzandlarini bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun qayerga murojaat qiladilar? Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida yosh avlodni qanday qilib telefon hamda kompyuter vositalaridan to‘g‘ri foydalanishlarini yo‘lga qo‘yadilar? Ularning qiziqishlari va iqtidorlari bilan kim, qayerda va qanday shug‘ullanadi?

Abdulla Avloniy aytganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”.

Darhaqiqat, maktab ta’limi tizimi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Aynan maktab va maktabdan tashqari ta’limning sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettiradi, hamda farzandlarimizni barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishlarida poydevor bo‘ladi.

Maktabdan tashqari ta’lim maktab ta’limiga qo‘shimcha yoki muqobil bo‘lib, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga qaratilgan hayot va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarini qamrab oladi. Maktabdan tashqari ta’lim oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi ta’lim faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin, uning yo‘nalishi oila yoki jamiyat tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, u uchun bolaning ijodiy faoliyati asosiy hisoblanadi. Birinchi o‘rinda shaxsning ijodkorlik rivojlanishi turadi va mashg‘ulotlar rivojlanishni ta’minlaydi, qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’limning ushbu turi moyilliklarni aniqlashga, qobiliyat va qiziqishlarni rivojlantirishga, fuqarolik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga, yosh avlodning hayoti va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga yordam beradi. Qo‘shimcha ta’lim tizimi tomonidan hal etilayotgan vazifalar qatorida qarovsizlik, huquqbuzarlik, giyohvandlik va ichkilikbozlik kabi illatlarning oldini olish hamdir.

Bolalar uchun maktabdan tashqari ta’lim ochiqlik, harakatchanlik va moslashuvchanlikka ega bo‘lib, bola, uning oilasi, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida “zamon talablari”ga tez va to‘g‘ri javob bera oladi. Yangi texnologiyalar olamida bolalar va yoshlar ijodi tushunchasidagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish innovatsion usullarni faol joriy etish, zamonaviy jihozlardan foydalanish, o‘qitishning yangi shakllarini izlash, resurs markazlarining rolini kengaytirishni taqazo etadi.

Maktabdan tashqari ta’lim atamasi bolaning shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan norasmiy ta’lim sohasini tavsiflaydi, u o‘z xohish istaklariga muvofiq o‘zini tanlaydi. Bolalarning maktabdan tashqari ta’limi muhim pedagogik salohiyatga ega: u shaxsiy rivojlanish motivatsiyasini shakllantirishning kuchli vositasi sifatida ishlaydi. Maktabdan tashqari ta’lim jarayonlarida har bir bola uchun uning shaxsiy qadr-qimmatini tarbiyalash va mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muvaffaqiyat holatini yaratish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Har xil faoliyat turlarini rivojlantirishga qaratilgan maktabdan tashqari ta’lim shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi uchun madaniy makonni kengaytiradi, uni ijodkorlikka undaydi.

Maktabdan tashqari ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u umumiy ta’lim tizimining bir qismiga aylanib, bo‘limlararo xususiyat kasb etadi. U bugungi kunda ham bolalar uchun maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, ham umumta’lim

maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, kollej va oliy o'quv yurtlari, madaniyat, sport tashkilotlari, xususiy tashkilotlarda ham joriy etilmoqda.

Ushbu mantiqqa ko'ra, maktabdan tashqari ta'lim nafaqat mavjud umumiy ta'lim tizimining elementi, balki bolaning hayotini o'zini o'zi belgilashda turli sohalarda asosiy vakolatlarga erishishga yordam beradigan mustaqil ta'lim manbaidir.

Jamiyatda tub o'zgarishlar ro'y berayotgan, borgan sari globallashtirilgan jamiyatda bo'sh vaqtning o'sib borayotgan roli zamonaviy dunyoda muayyan ehtiyojlarni talab qilmoqda. Jamiyatning qadriyat yo'nalishlari xalqarolashuv tufayli o'z barqarorligini yo'qotmoqda. Ta'lim tizimi bu ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlardan chetda turolmaydi. Bunday sharoitda bolalarning bo'sh vaqtlari alohida ma'noga ega. Ko'pgina mamlakatlarda bolalar va yoshlarga bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish imkonini beruvchi o'ziga xos siyosat mavjud.

Turli mamlakatlarda maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarda taklif qilinadigan mashg'ulotlarga nisbatan turli atamalar qo'llaniladi. "Maktabdan tashqari ta'lim" atamasi "norasmiy ta'lim", "qo'shimcha ta'lim", "bosh vaqt dasturlari" va boshqalar bilan almashtirilishi mumkin. Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqida bo'sh vaqtni maqsadli o'tkazish norasmiy ta'lim deb ataladi.

Yoshlar hayotidagi ta'limning 70% ga yaqini norasmiy yoki norasmiy ta'lim muassasalarida: oilada, tengdoshlar guruhida, yoshlar tashkilotlarida va bo'sh vaqt guruhlarida amalga oshiriladi. Ta'lim vaqtining taxminan 30% i rasmiy ta'limga to'g'ri keladi. Norasmiy ta'lim bolalar va yoshlar uchun yanada maroqlidir. Norasmiy ta'lim nisbatan o'zgaruvchan talablarga tezroq javob bera olishi tufayli rasmiy ta'limga qaraganda ancha moslashuvchan va innovatsiondir.

YuNESKO tasnifiga muvofiq maktabdan tashqari ta'lim, an'anaviy ta'lim tizimidan tashqari tashkil etilgan va o'tkaziladigan o'quv rejalari va kurslarini o'z ichiga oladi, bunda ta'lim natijalari har doim ham tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanmaydi. Bugungi kunda deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida o'n minglab maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari mavjud.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hukumatlar umumiy ta'lim bilan bir qatorda, bolalar rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lgan maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish davlatning vazifasidir, degan fikrda.

Finlandiya va Litvada maktabdan tashqari ta'lim orqali turli kompetensiyalarga ega bo'lish tendensiyasi kuchli. Finlandiyadagi maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari, bo'sh vaqtlarda, ko'pincha nodavlat tashkilotlarida va boshqa ijtimoiy faoliyatning bir qismi sifatida o'tkaziladigan ta'limni nazarda tutadi. Finlandiyada maktabdan tashqari ta'lim maktabda olingan ta'limga muqobil yoki muhim bo'lgan bilim manbai hisoblanadi. Madaniyat, sport va yoshlar bilan ishlash sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar nisbatan arzon: a'zolik to'lovlari 5 yevro yoki bepul.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hozirda “Yevropa 2022 va Yoshlar strategiyasi” dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning maqsadi Yevropa davlatlarini yoshlar faoliyatini tashkil etishda qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy yordam ko‘rsatishdan iborat. Maktabdan tashqari ta‘lim sohasidagi ajriabaning eng yaxshi namunalarini tanlash mezonlari tizimi (yangilik, dolzarblik, optimallik, yuqori samaradorlik, barqarorlik, innovatsiyalarni ommaviy qo‘llash imkoniyati) quyidagi mamlakatlarni aniqlash imkoniyatini berdi: Niderlandiya, Polsha, Chexiya.

Niderlandiya markazlashmagan mamlakat bo‘lib, unda davlat maktabdan tashqari ta‘lim sohasida faol rol o‘ynamaydi. Maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlarining aksariyati xususiydir. Subsidiyalar ko‘rinishidagi xususiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlash ba‘zan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu yerda maktabdan tashqari ta‘lim (norasmiy ta‘lim) muhim biznes sohasiga aylanib bormoqda. Dam olish sektorlari yiliga 50 milliard yevro aylanmaga ega. (Internet ma‘lumotlariga ko‘ra) Bolalar va yoshlar bo‘sh vaqtlarini o‘zlari xohlagan tarzda o‘tkazish imkoniyat uchun pil to‘laydilar. Bu tendensiya aksariyat yevropa mamlakatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Polshada esa maktabdan tashqari ta‘lim o‘ziga xos milliy qadriyatlarni, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishda alohida e‘tibor qartadi. O‘z mintaqasining tarixi va madaniyatini o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. maktabdan tashqari ta‘lim muassasalaridan tashqari uyushmalar, fondlar va norasmiy ta‘lim markazlari, yoshlar saroylari, Iordaniya bog‘lari, yoshlar markazlari mavjud.

Chexiya Respublikasining norasmiy ta‘lim sohasidagi davlat siyosati mamlakat raqobatbardoshligi omillaridan biri sifatida qaraladigan umrbod ta‘limni qo‘llab-quvvatlashda ifodalanadi. Bunday ta‘limga investetsiya kiritish “rivojlanishga qo‘yilgan eng muhim investetsiya” sifatida tan olinadi. Bunday tashkilotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘p hollarda davlat budjetiga bog‘liq.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida maktabdan tashqari ta‘limni bolalarning qo‘shimcha ta‘lim tizimiga aylantirish, o‘zbekistonning demokratik, huquqiy davlat, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq.

Ushbu o‘tish jarayonida har xil turdagi norasmiy ta‘limning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati oshdi, birinchi navbatda maktabdan tashqari ta‘lim, uning asosiy maqsadi doimiy o‘zgarib turadigan individual ijtimoiy-madaniy va ta‘lim ehtiyojlarini qondirishdir.

Bugungi kunda mustaqil va erkin fikrlaydigan, dunyoqarshi keng, ongli, faol va talabchan bolalar va o‘smirlarga yurtimizning barcha yerlarida, shahardan tortib to chekka-chekka qishloqlarigacha oilasining kelib chiqishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qat‘iy nazar, sifatli ta‘lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bolaning sifatli ta‘lim olishiga xoh oilada, xoh maktabda va na maktabdan tashqari

ta'limda hech bir omil to'sqinlik qilishi kerak emas. Qishloq maktablari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida oliy ma'lumotli pedagog-kadrlarning yetishmasligi, zaruriy moddiy-texnik baza bilan ta'minlanmaganligi, o'quv bino-inshootlarning shart sharoitlari mukammal emasligi ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham katta muammo bo'lib kelmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining uzviy qismi bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiyalash, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugunning eng dolzarb vazifasidir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi innovatsion g'oyalar mamlakatimiz tomonidan alohida e'tiborga loyiq deb topilmoqda. Shu o'rinda, hozirgi paytda butun dunyoda keng tarqalib borayotgan va ko'plab joylarda o'z samarasini berayotgan *klaster* tizimi ham hududlarda sifatli ta'lim olish uchun xizmat qilib kelmoqda. Covid-19 pandemiya davrida butun dunyoda chekka hududlarda masofaviy o'qitishni tashkil etishda o'ziga xos talaygina muammolar va qiyinchiliklar sodir bo'ldi. Ayni paytda, hududlarda bir-biriga yordam qo'lini cho'zgan maktablarda ta'lim sifati tushishiga yo'l qo'yilmadi, bir-birlarini pedagog kadrlar va moddiy texnik baza bilan ta'minlashganligi nafaqat o'quvchi va maktablarning yutug'i, balki har bir bola kelajak poydevori sanalmish mamlakatning ham yutug'idir.

Iqtisodiyotda klasterlarni yaratish jarayoni yanada rivojlanganligi sababi, klasterlashning ko'plab tamoyillari va mexanizmlari namunaviy namunalar sifatida olinishi va zarur moslashuvni hisobga olgan holda ta'lim sohasiga o'tkazilishi mumkin.

Ta'lim klasteri deganda biz ma'lum darajadagi va yo'nalishdagi ta'lim dasturlarini, shuningdek ularni rivojlantirish shartlarini belgilaydigan va amalga oshirishni ta'minlaydigan turli xil sanoat mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllardagi tashkilotlar, davlat va jamoat uzilmalari to'plamini tushunamiz. Klaster tuzilmasi odatda markaz, sheriklar, infratuzilma va o'z boshqaruv organlarini o'z ichiga oladi.

“Barkamol avlod” bolalar maktablari bilan hududiy ishlab chiqarish korxonalarini klasterlash, boshqa sohalardagi kabi, rivojlanish maqsadlariga erishishda samarali yondoshuv nisbatan barqaror tashkiliy va iqtisodiy shakllar sifatida ta'lim makonini yangicha taqdim eta oladigan, integratsiyaning afzalliklarini to'liq aniqlaydigan va amalga oshiradigan ta'lim klasterlarini shakllantirish bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda, birgina Farg'ona viloyatida jami 20 ta, shundan 1ta viloyat va 19 ta tuman va shahar “Barkamol avlod” bolalar maktablarida jami 917 ta to'garak faoliyat yuritmoqda. Maktablardagi to'garaklarning 128 ta Madaniyat va san'at yo'nalishida 3844 nafar, 104 ta Texnika, konstruktorlik va modellashtirish yo'nalishida 3115 nafar, 305 ta Hunarmandchilik va qo'l mehnati yo'nalishida 10021 nafar, 156 ta Turizm va ekologiya yo'nalishida 5297 nafar, 116 ta Oliy ta'lim va maktabga tayyorlov yo'nalishida 3194 nafar hamda 38ta xorijiy tillar yo'nalishlarida 1196 nafar, jami

28479 nafar o'quvchilar qamrab olingan. Viloyatdagi jami jami 674435 nafar o'quvchilarga nisbatan 4,2% qamrab olingan.

Ushbu maktablarda jami 1025 nafar pedagog hodimlar bo'lib, ulardan 846 nafari (82,5%) ayollarni tashkil etadi. Shundan 258 nafari (25,2%) oliy, 154 nafari (18,2%) to'liqsiz oliy, 586 nafari (57,2%) o'rta-maxsus, 27 nafari (2,1%) hunarmand-usta maqomidagi pedagoglardir.

Bundan ko'rinib turibdiki, "Barkamol avlod" bolalar maktablarini mos keluvchi soha tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarini bilan klaster tuzilib, o'quvchilar o'quv mobaynida korxonalarda amaliyot o'tab borsa, ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi va kelgusida tayyor malakali kadr bo'lib yetishadilar.

Pedagog hodimlar uchun ham malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlarini yaratish, oliy ma'lumotli bo'lmagan pedagog hodimlarni esa tanlab, o'z sohalariga mos keluvchi Oliy ta'lim muassasalarida intensiv o'qitish va tayinlashni yo'lga qo'yish lozim.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar:

1. Bolalar uchun maktabdan tashqari ta'limning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish.

*bolalar uchun maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tarmog'ini, shu jumladan DXShni rivojlantirish orqali ko'paytirish;

*bolalar uchun maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

2. Bolalarni maktabdan tashqari ta'lim bilan keng qamrab olish uchun shart-sharoitlar yaratish:

*maktablarda, ayniqsa qishloq joylarda "Barkamol avlod" bolalar maktablari filiallarini ochish;

*turli idoralar, sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi obyektlarini jalb etish;

*davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish (fondlar, kasbiy jamoalar va boshqalar);

3. Maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ta'limning yangi interaktiv axborot texnologiyalarini joriy etish;

4. Malaka oshirish orqali "Barkamol avlod" bolalar maktablari o'qituvchilarining yuqori sifatli kasbiy o'sishini ta'minlash;

5. Pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan "Barkamol avlod" bolalar maktablari mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqish;

6. Alohida ta'limga muhtoj bolalar va qishloq bolalari uchun masofaviy ta'limni rivojlantirish, maktabdan tashqari ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha videodarslar tayyorlash;

7. Maktabdan tashqari ta'lim tizimidagi pedagog va rahbar xodimlar, mutaxassislarning ijtimoiy mavqei va malakasini oshirish;

*oliy ta'lim muassasalarida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;

*sohadagi o'qituvchi va rahbarlarning mehnatiga haq to'lash tizimi mexanizmlarini takomillashtirish;

*yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

*eng yaxshi o'qituvchi va mutaxassislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

*respublika tadbirlarida eng yuqori o'rinlarni egallagan professor-o'qituvchilarga imtiyozlar berish izimini yaratish.

8. "Barkamol avlod" bolalar maktablari tizimini boshqarish samaradorligini oshirish;

*maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini boshqarishning davlat-xususiy shakllarini joriy etish;

*ijtimoiy sheriklikni, shu jumladan biznes tuzilmalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

9. Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;

*bolalar uchun maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tadbirlarda ishtirok etish uchun sharoit yaratish;

* maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan oromgohlarni yaratish va ularning faoliyatini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.05.2021yildagi 331-son "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
3. Pudenko T.I, "Ta'lim klasterlarini rivojlantirish ta'limni boshqarishning modeli sifatida", Ta'limni boshqarish: nazariya va amaliyot 2014, 3 33.
4. Farg'ona viloyat "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan 2023-yilning 5 oyligida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotnoma. Z.Yo'ldoshev.
5. M.U. Badalova. "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishda ta'lim klasterlarining roli". 2023.